

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili leksikologiyasi.- T.: Fan,1981.
2. Navoiy asarlar lug'ati.- T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1967.
3. Dadaboev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. -T.: Fan, 2007.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild, - M.: Rus tili, 1981.
5. Muhammadiyeva D.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
6. O'razova I.
https://www.researchgate.net/publication/371445592_UzMU_HABARLARI_VESTNIK_NUUZ_ACTA_NUUZ_MIRZO_ULUGBEK_NOMIDAGI_UZBEKISTON_MILLIJ_UNIVERSITETI_ILMIJ_ZURNALI
7. O'razova I.
https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&gmla=AJsN-F4xXsnQkorkZfkCns%20J13NxbQl_btWZxY3Mn1Yqwf8fMB-Z2xaDfKEeADRS%20z1aynTV4-wnq3YUqXm-96pZ0qtjTqd31EhHiBlW-iGYVK5BqQ8EWNh1iSlDaPzbAvJu6fANos1Yl
8. Rixsiyeva K.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=DVYguIUAAAAJ&citation_for_view=DVYguIUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
9. Umurzoqova M. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality
https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_the_formation_of_a_linguistic_personality?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlIjoiHJvZmlsZSJ9fQ
10. Xolmanova Z.
https://www.researchgate.net/publication/358344028_Boburnoma_leksikasi_tadqiqi

RAMZLARDA MILLIY MADANIYATNING AKS ETISHI

REFLECTION OF NATIONAL CULTURE IN SYMBOLS

Muxammadaliyeva Shaxzoda*

Annotatsiya. Maqolada ramzlar va ularda milliy madaniyatning aks etishi yoritilgan. Bu borada izlanishlar olib borgan olimlarning fikrlaridan asos sifatida foydalanilgan. Ramziy qarashlarga oid xalqlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ramz, san'at, belgi, xususiyat, xalq, ma'no, omil.

Abstract. The article describes symbols and their reflection of national culture. In this regard, the opinions of scientists who conducted research were used as a basis. Similarities and differences between peoples regarding symbolic views are analyzed.

Key words: symbol, art, sign, feature, nation, meaning, factor.

G'arbda ramz masalasini nisbatan erta tizimli o'rgangan nemis olimi Hegel hisoblanadi. Insoniyatning eng birinchi san'ati sifatida ramzlar turkumiga xos san'atni ko'rsatgan. Hegel ramz faoliyatining insoniyat ruhiyatining mashq qildirish bosqichi ekanligiga urg'u berib, unga epistimologik (bilish nazariyasi) nuqtayi nazaridan yondashadi. Shu sabab ham u ramzni tafakkur tarzi, bilishning bir ko'rinishi sifatida ta'kidlaydi [Ochilov, 2018: 17].

*O'qituvchi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. E-pochta: shahzodaxon532@gmail.com

Y.Lotman ramz haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “O‘zida aloqador bo‘lgan o‘tmish xotiralarini kondensatsiyalashtira olgan va asragan hamda qayta yuzaga chiqadigan barcha belgilar ramzdir” [Лотман, 2001: 617]. Ramzning madaniy xotira vazifalarida namoyon bo‘lishi asosan uch xil ko‘rinishga ega:

- ramz yuqori darajada kondensatlashish salohiyatiga ega, u o‘zining zichlash usulidan foydalanib, katta miqdordagi madaniy ma’lumotni saqlay oladi hamda umumqadriyatlar va qonuniyatlarni mujassamlashtiradi;

- u mustaqil ravishda migratsiya qilish xususiyatiga ega. U yangi kontekstda turli zahirada turgan ma’lumotlarni qayta jonlantiradi, muayyanlashtiradi, baholaydi hamda o‘tmish, hozir va kelajak o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi;

- ramz yaqqol yaratish xususiyatiga ega. U insoniyatning tasavvur, yaratuvchanlik va bashorat qilish kuchlariga tayangan holda to‘xtovsiz ravishda o‘zining xotira omborini yangilab, yangi madaniy mazmunni yuzaga chiqaradi.

Yuqoridagi xususiyatlarni hisobga olgan holda ramzni madaniyat xotirasining asrovchisi va tashuvchisi deb hisoblash mumkin. Ramzlar har qanday madaniyatda eng faol omil bo‘lib vazifa bajargan va o‘z zimmasiga madaniyat xotirasini saqlash vazifasini olgan. Uning ma’lumotlarni ixchamlashtirish, aks ettirish xususiyatlariga ega ekanligi madaniy xotirani saqlashning eng yaxshi vositasi darajasiga ko‘taradi hamda shaklan ixchamlik, ma’no jihatdan teranlikni ta’minlaydi.

Ingliz olimi E.Taylor ramzlarni ikki turga: sodda va murakkab turkumga ajratadi. Eng ibtidoiy – turli shakllar, ovozlari, qo‘l harakatlari va boshqalari sodda ramzlarga mansub bo‘lsa, murakkab ramzlar turkumini ibodat marosimlari va madaniy mazmunga ega turli buyumlar, rasm-rusumlar tashkil qiladi [Тайлор, 1989: 39]. Birinchi guruh ramzlari murakkab ma’noga ega, ular vaziyatning turlichaligiga qarab o‘zgarishi mumkin. Ikkinchi guruh ramzlari esa turg‘un va bir ma’noni ifodalashi bilan o‘ziga xos. Sodda ramzlarning vaziyatga qarab o‘zgarib borishi ko‘p marotaba uchraydi. Madaniy xotira nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ular ko‘p vaziyatlarda o‘zining ichki xotiralarini namoyon qiladi, shuning uchun ma’lumot miqdori ham katta bo‘ladi. Oyni misol qilib keltiradigan bo‘lsak, rus aholisi ongida u qorong‘ilik, oxirat bilan bog‘lanib, ba’zida hayot va mamot bilan tasavvur qilinsa, oy nuri slavyanlarda homilador hamda norasidalar uchun xavfli, ziyon keltiradigan hodisaga taqqoslanadi. Vetnamliklarda esa boshqa janubiy Osiyo xalqlaridagi kabi oyga munosabat tamoman boshqacha, ya’ni ular oy kalendari bo‘yicha yashashadi, maxsus nishonlanadigan Oy bayrami bolalarning eng sevimli bayrami hisoblanadi. Go‘zal, nozik va beg‘ubor yosh qizlar oyga o‘xshatiladi. Shuning uchun Vetnam xalqi hayotidagi barcha ezguliklarni oy orqali tasavvur etadilar.

Shu kabi oyga munosabat o‘zbek xalqiga ham mansub ekanligini alohida qayd etish joiz. Chunki o‘zbeklarda oy quyoshdan nur olib, yog‘du soluvchi samoviy jism (“Yulduz aslo oy bo‘lmas” – maqol), go‘zal, chiroyli yuz (“Oy yuzingga jon bila to bandaman” – Hofiz Sheroziy), juda go‘zal (“Oy desa oyday, kun desa kunday, yakkayu yagona qizi bor ekan” – O‘tkir Hoshimov), safarga otlangan kishiga yaxshilik tilash (“Oy borib, omon qaytg‘in ”) kabi ma’nolarda ishlatiladi. Ruslarda ham “лицо как луна” iborasi go‘zalikka tan berishni anglatadi. Bunday misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham uchratish mumkin. Yoki quyoshni olsak, ayrim salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilari sifatida ijobiy baholashadi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni juda qiyin ahvolga soladigan jazirama haroratga tenglashtirilib, salbiy baholanadi. Aslini olganda, bu kabi sodda ramzlar uzoq yillar davomida yig‘ilgan tajribadan kelib chiqqan holda insonlarning ongida saqlanuvchi xotiraga aylanib qolgan.

Sodda va murakkab ramzlar qadriyatlar, ma’lum bir xalq yo biror ijtimoiy guruh ruhiyatini o‘zida aks ettiradi. Va u umumxalq tomonidan tan olingan bo‘lishi talab etiladi. Bu ramzning madaniy xotirani saqlash mas’uliyatining asosiy shartidir. Bir ramzni faqat bir kishi bilsa, ungagina taalluqli bo‘lsa, u ramzning yashovchanligi o‘sha insonning vafoti bilan yakun topadi. Agar mazkur ramz adabiyot yoki so‘zlashuv uslubi orqali jamiyat ichiga kirib, ular tomonidan tan olinib, qo‘llansa, ramz sifatida keng ishlatilishi ham mumkin. Biror bir madaniy

xotira boshqa kontekstga ko'chib o'tgan sari yangi ma'no qirralariga ega bo'ladi va "uxlab yotgan" elementlar qo'zg'alishi natijasida yana-da faollashadi, ichki mohiyatini yorqinroq ifoda qila boshlaydi. Bu hodisa she'riy matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'lum bir she'rda qo'llanilgan ramziy obraz o'zga bir she'rda yoki boshqa bir muallif asarida o'zining yangi ma'nolariga ega bo'lishi kuzatiladi [Ochilov, 2018: 22].

Ramzlar orasida madaniy xotiraning ko'chib yurish xususiyati uni yana ham kuchli aks ettiradi. Bu esa ularning ma'no hamda shakl ifodasi o'rtasida bevosita aloqadorlikni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shakl va mazmun ham yuqori darajadagi noaniqlik va alohidalik xususiyatlariga ega bo'lib, ramzning ifodasi ma'noni to'laligicha qoplay olmaydi, yashiradi. Bu esa ramzlarni qadimiy va boy xotiraning inson xayoliga kelmaydigan kontekstga olib kiradi, o'tmish, hozir va kelajak o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi. Ramz hamda kontekst haqida Y.Lotman: "Ramz o'zining butun ma'nosini yashiradi va aniq ifoda qilish xususiyati chegaralangan. Bunday chegaralanish aniq, ravshan tarzda uni atrofdagi belgilar kontekstdan ajratib oladi. Bizning qarashimizcha, so'nggi holatda "ramzga aylanish" muhimidir" [Лотман, 2001: 241], - deya fikr bildirgan.

Insoniyatning bir necha ming yillik madaniy xotirasini o'zida aks ettirgan ramzlarning ildizi ijodkorlarning xotirasidan joy olib, ijod qilish paytida ular yangi davr va semiotik kontekstda boshqa omillar bilan birikkan holda yangi ma'no kasb etib, madaniy xotiraning muhim qismiga aylanib boradi. Ramz madaniy xotiraning yaratuvchisi sifatida ham maydonga chiqadi. Ramz ma'nosi va ifodasining munosabat jarayoni inson tafakkurining umumiy harakati natijasidir. Unda tarkib topadigan hamma ijodiy faoliyatning asosiy omillari tasavvur va yaratish hisoblanadi. Har bir tildagi ramziy so'zlar o'sha xalq tarixi va madaniyatining uzoq rivojlanish natijasi bo'lib, keyinchalik ramziy obrazlar ifoda shakllari millatlarning badiiy-falsafiy tafakkuri va madaniy-psixologik holatini o'zida aks ettiruvchi ta'sirchan kuchga aylanib ulgurgan.

Bugungi davr o'zbek adabiyotida ramz tasviriy vositasining qo'llanilishi vazifasi hamda mohiyati ancha kengayib, mazmun boyishi kuzatilyapti. Fikr talqini ramziylik muloqot jarayoni xarakterini namoyon qiladi, muloqotning ramziy xarakteri bizning so'zlarimiz yoki imo-ishoralarimiz o'ziga xos ma'no anglatmasligini bildiradi. Aksariyat hollarda kelishilgan ustama ma'no qabul qilinadi. Biz muloqot jarayonida ramzlardan foydalanar ekanmiz suhbatdoshimizning ham mazkur ramzlar tizimini qabul qilganini taxmin qilamiz. Bu ramziy ma'nolar ham verbal (so'zli), ham noverbal (so'zsiz) shaklda bayon etiladi. Minglab noverbal vositalar (tana a'zolari harakatlari, imo-ishoralar, yuz ifodasi, ko'z qarashi, vujudning holati va h.k.) har xil ma'nolarni o'z ichiga oladi. Dunyo ramzlardan iborat, ramzlar insoniyatning ilk haqiqiy ijodidir. Ramz tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi hisoblanadi.

Ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi. Inson moddiy muhitdan tashqari, ramziy olamda ham yashaydi. Inson o'z tarixining ilk davrlarida ma'nolar dunyosida yashagan, dunyoni ramzlar orqali qabul qilgan, tabiat bilan ramzlar orqali munosabatda bo'lgan. Shunga ko'ra "inson tilini to'la ma'noda ramzlar tili deyish mumkin". Ramziy etalonlar madaniy jihatdan tamg'alangan bo'ladi. Binobarin, turkiy xalqlar lingvomadaniyatida bo'ri - jasurlik etaloni bo'lib kelsa, rus lingvomadaniyatida vahshiylilik etaloni hisoblanadi. Ayrim tillarda esa ramziy etalonlar bir-biriga mos keladi. Masalan, qo'y-yuvoshlik etaloni, chumoli va ari - mehnatsevarlik etaloni. Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va hokazolar ramz bo'lib xizmat qiladi [Usmanova, 2019: 142]. Shundan kelib chiqib, turli lingvomadaniyatlarda raqam ramzlarining ifoda etilishini ko'rib chiqamiz. Raqamlardan xalqimiz eng ko'p ishlatadigani uch, yetti, o'n ikki, yigirma, qirq, ellik ikki, to'qson, yuz va boshqalarni uchratishimiz mumkin. Shundan yetti raqami turkiy xalq orasida juda keng qo'llaniladi. Buni quyidagi dalillar orqali ham isbotlashimiz mumkin:

I. Hafta kunlari yettita qilib belgilangan: 1) dushanba; 2) seshanba; 3) chorshanba; 4) payshanba; 5) juma; 6) shanba; 7) yakshanba. II. Oilaviy shajarada yetti avlodga nom berilgan: 1) farzand; 2) nevara; 3) evara; 4) chevvara; 5) kavara (duvara); 6) ovora ; 7)

begona. Atrof-muhitimizni o'rab turgan olam raqamlar hamda ma'lumotlar bilan boy. Ayniqsa, inson tashqi muhitning sir-asrorlarini, ajoyibotlarini ham raqamlarda ko'rishga qiziqadi. Dunyo xalqlari "to'rt, yetti, sakkiz, o'n uch" kabi raqamlarni ba'zi voqea-hodisalar, narsalar va manzillar bilan bog'laydilar, hatto, ayrim millatlar ularni ilohiylashtiradilar.

III. Xalqimiz orasida "yetti xazina" degan tushuncha tarqalgan bo'lib, ular quyidagilardir: 1) sigir- ro'zg'orning qassobi va baqqoli; 2) ipak qurti- qizlarning sepi;

3) asalari- oilaning tabibi; 4) tovuq – ham obiyovg'on, ham dori-darmon; 5) objuvoz- qozonning yog'i; 6) tegirmon- qorinning belbog'i; 7) o'rmon- imoratning "suyagi", qozon olovi. IV.

Paremalarda ham "yetti" soni ko'p uchraydi, masalan, " Yetti o'lchab, bir kes ", "Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Yurtidan ayrilgan o'lguncha yig'lar ", "Yigit borki, yetti pushtigacha nomi qolar, Yigit borki, yetti kunda nomi yo'qolar ", " Bir tog'a yetti ota o'rniga o'tar", " Yetim yetti uydan osh ichar " va hokazo. V. Qadimdan yetti iqlim bor deb yuritilishi. Biz buni A. Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida yaqqol ko'ramiz. Masalan, qadimda yetti iqlim (Beruniy ma'lumoti bo'yicha): 1) Hijoz; 2) Misr; 3) Rum; 4) Ya'juj va Ma'juj; 5) Sin; 6) Bobil; 7) Hind.

VI. Xalqimiz orasida vafot etgan insonga atab, yettinchi kuni "yetti" (maraka) marosimining qilinishi ham misol bo'la oladi. "Yetti" soni faqat turkiy xalqlar lingvomadaniyatida etalon bo'lib qolmay, boshqa Yevropa xalqlar lingvomadaniyatida ham muqaddas etalon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin: Bularga misol qilib quyidagilarni ko'ramiz: I. Dunyoda yetti mo'jiza bor deb qaralishi, bular: 1) Misr ehromlari; 2) Semiramida (Bobil) osma bog'lari; 3) Artemida ibodatxonasi;

4) Zevs haykali; 5) Gelios haykali; 6) Galikarnas dahmasi; 7) Iskandariya mayog'i. II. Yetti xil tovushning borligi: 1) Do; 2) Re; 3) Mi; 4) Fa; 5) Sol; 6) Lya; 7) Si. III. Yer yuzini yetti qit'aga bo'lishlari: 1) Yevropa; 2) Osiyo; 3) Afrika; 4) Shimoliy Amerika; 5) Janubiy Amerika; 6) Antarktida; 7) Avstraliya. Rus xalqi Moskva shahrini, italyan xalqi esa Rim shahrini "yettita tepalikdan iborat" deb qarashlari ham bunga misol bo'la oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim xalqlar va ularning lingvomadaniyatida "yetti" raqami ramziy etaloni bir- biriga mos keladi va hammasida bir xil "muqaddas, ilohiy" degan tushunchani beradi. Rus va boshqa yevropa xalqlari lingvomadaniyatida "o'n uch" raqami etaloni – "baxtsizlik, omadsizlik" deb qaraladi. Sababi ularning fikricha, Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Sezar kabi buyuk sarkardalar "o'n uch" raqamli sanada halok bo'lishgan deya o'ylaydilar. Lekin turkiy xalqlar etalonida esa bu raqam, deyarli, hech qanday ma'no anglatmaydi va bu raqamni "baxtsizlik keltiradi", deb ham tasavvur etmaydilar. Shunday tasavvurlardan biri "sakkiz" raqami uzoq sharq xalqlari, ya'ni xitoy, yapon kabi xalqlarning lingvomadaniy etalonida – "ilohiy, muqaddas, yer va osmon tushgan ilohiy raqam degan tushuncha bor. Turkiy xalqlar lingvomadaniyatida esa "sakkiz" raqami deyarli oddiy son deb qaralib, hech qanday etalonni anglatmaydi. Lekin islom dini lingvomadaniyatida bu raqam etaloni bor, ya'ni "jannatning sakkiz darvozasiga" qiyos qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, lingvomadaniy ramz bo'lgan raqamlar etaloni turli xalqlarda umumiy etalonni ham tashkil eta oldi, ayrim raqamlar esa umumiy bir etalonga birlasha olmay, bir-birlaridan farq ham qildi. Bularni bilish bizga lingvomadaniyatlarini ramzlar orqali o'rganishda faqat hayvonlar yoki ranglar timsoli bilan emas, balki, raqamlar timsoli bilan ham o'rganish samarali ekanligini ko'rsatadi.

Endi esa xosiyatli raqamlardan biri "qirq"qa to'xtalib o'tamiz va u bilan bog'liq tushunchalarni lingvomadaniy aspektda kengroq tadqiq etamiz. Numerologiya fanida "qirq" raqami "sinov, o'lim"ni anglatadi. Qadimda "qirq" raqami bilan bog'liq ko'plab tushunchalar mavjud bo'lgan. Ayniqsa, "qirq kunlik" alohida ahamiyatga ega:

Bobilda qirq kun osmondan yomg'ir yog'gan, bo'ron va suv toshqini bo'lgan va bu xavfli, deb hisoblangan;

- Rimliklarga kelgan kemalar qirq kun mobaynida karantinga joylashtirilgan va karantin so'zi "qirq" so'zidan kelib chiqqan;

- Qadimgi Misrda o'limidan qirq kun o'tib, Osiris g'oyib bo'lgan va bu ularda ro'za davri hisoblangan.

Hozirda Xitoy davlatida qirq raqami bilan bog'liq ajoyib odat bor. Xitoyning janubiy qismidagi Yunnan viloyatida yashovchi myao va yao xalqlarida ona farzandli bo'lgach darhol uy ishlarini qila boshlaydi, ota esa onaning o'rniga yotib olib, qirq kungacha turmaydi. Tavallud topgan farzandni va uning onasini ins-jinslardan himoyalash, ins-jinslarni chalg'itish maqsadida ona o'zida hech qanday o'zgarish ro'y bermaganligini amalda isbotlashi uchun shunday qilishar ekan. Ularning e'tiqodicha, ins-jinslar yangi chaqaloqqa va uning onasiga o'ch bo'ladi. Har bir xalqning e'tiqodi ham o'ziga xos bo'lib, u milliy mentalitetni ko'rsatib beruvchi bir ko'zgudir. Muqaddas Islom dinimizda ham raqamlar bilan bog'liq bir qancha lingvomadaniy birliklar mavjud. Alloh taolo hikmati ila Oyati karima va sharaflil hadislarda yoki din ulamolari tomonidan ayrim raqamlarga, xususan, "qirq" raqamiga ko'p bora murojaat etilganiga guvohi bo'lamiz. Tasavvuf ahlilari biror xayrli ishni qirq kun mobaynida yoki qirq marta bajarishni yo'lga qo'yganlar. Shuningdek, kasal odamga shifo maqsadida "Yasin" surasining qirq marta o'qilishi kerakligi haqida ham bir necha ma'lumotlar uchraydi. Ba'zi rivoyatlarda inson qirq kun mobaynida Allohga ixlos bilan xolis ibodat qilsa, unday insonning qalbidan hikmat chashmalari tilga oqib chiqishi zikr qilingan. Islom dinimizda inson vafot etganidan so'ng muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimni qirq kun xatna qilinishini, qirq kun qabr azobi borligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Har bir xalqning nomini dunyoga tarannum etgan san'ati mavjud. Turkmanlar gilami bilan, Dog'iston xalqi misgarlik buyumlari bilan, moldavanlar esa o'zining raqslari bilan mashhurdir. Qardosh o'zbek millati esa asrlar davomida sayqallanib kelgan, xalqning ruhiy bulog'i, ijod chashmasi bo'lmish milliy dostonlari bilan dunyoni zabt etgan xalqdir. Shunday nodir namunalardan biri "Alpomish" xalq dostonidir. Doston shu darajada mohirona yaratilganki, uni to'liq yod olgan aholi juda ko'p bo'lgan. Ushbu asarda ham raqamlar, xususan, "qirq" raqamiga oid ko'plab voqealar, tushunchalar uchraydi. Fikrimiz dalili uchun quyidagilarni keltirish o'rindir:- "...davlat talab davlat tilar ekan, farzand talab farzand tilar ekan, oxirat talab iymon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan";
- "Magar qirq Chilton bilan rasul payg'ambar meni musulmon qilib, qavm- qarindoshini tushimda ruhima ko'rsatib, meni do'st qilgan, qo'ng'irotdan kelayotgan Alpomish";
- "Shunday bo'p bul orada qirq kun o'tdi. Qirq kungacha maslahat qip yotdi"[Yo'ldoshev Q, 2019: 9-45].

Muxtasar qilib aytganda, biz oddiy arifmetik hisoblash tizimi sifatida qaraydigan raqamlar yashash tarzimizda, kundalik hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Demak, raqamlar - milliy madaniyatimizning ajralmas bir bo'lagi. Shuni hisobga olgan holda raqamlar bilan bog'liq milliy va diniy tushuncha, voqealarni lingvomadaniy aspektda tadqiq etsak, lingvomadaniyatshunoslik sohasi uchun o'ziga xos yangilik bo'ladi.

Dunyo xalqlari madaniyatida qushlar ham muhim ahamiyat kasb etadigan jonzoqlar hisoblanib, har bir xalq qush bilan bog'liq o'ziga xos tasavvurlariga egadir. Qushning parvozi, osmon bilan yerning uzviy bog'liqligining ramzi sifatida qo'llaniladi. Yunonistonda "qush" ma'nosi anglatadigan so'z "biror narsaning nishonasi", "alomat" hamda "ilohiy bashorat" ma'nosini beruvchi so'zlar bilan sinonimdir. Bu qushning Daotsizmda anglatadigan ma'no mazmunidir. Daoitsizimda qalandar "yengillik", yer yuzasidagi "og'irlik" dan ozod bo'lish ma'nosida, qushning ko'rinishiga kirgan. Qurbonlikka keltirilayotgan, qurbonlik marosimidagi raqs ijro etayotgan odam "osmonga uchib ketayotgan qush"ga aylanib, "Brahmana" (ilohiy bosqich) gacha ko'tarilgan [Kosimova, 2016: 11]. Qushlar turli xil diniy sistemalarning, mifopoetik an'ana va udumlarning ajralmas elementi bo'lib, simbolika va ramzshunoslikda keng namoyon bo'ladi. Qushning ramz sifatidagi ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi: qanoqlarining mavjudligi va uchish qobiliyati; ochiq havo bilan aloqadorligi; harakatlarining erkin, yengil va tez ekanligi; sayrash va nutq qobilyatiga ega ekanligi. Ko'p hollarda qushlar ijobiy obraz va belgi sifatida qaraladi. Qushlarning ramziy ifodalanishi maqollarda juda ko'p uchraydi, ularning turli xil ma'no xususiyatlarini kasb etishi insoniyatning dunyoqarashi bilan bevosita aloqadadir. Ramzlar orqali qushlar anglatgan majoziy ma'nolar shakllanadi.

Har bir xalq o'zining asrlar davomida shakllanib kelgan dunyoqarashi, ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan holda muayyan bir qushga nisbatan shakllangan o'zaro farqlanuvchi tassavvurlariga ega bo'ladi. Ushbu tassavvurlarning xilma-xilligi o'z o'rnida qushlarning turlariga qarab ortib, kengayib boraveradi.

Xulosa qilib aytganda, har bir xalq o'zining asrlar davomida shakllanib kelgan dunyoqarashi, ijtimoiy hayotidan kelib chiqqan holda muayyan bir qushga nisbatan shakllangan o'zaro farqlanuvchi tassavvurlariga ega bo'ladi.

Ramzlar har bir xalqning madaniy fenomeni bo'lib, har bir xalq o'ziga xos ramzlar haqidagi tushunchaga egadir. Ular muayyan bir ma'nolar yig'indisini ochib berishga xizmat qiladi. U mazmun va ifodada ham doimo o'zida tugallangan mazmunni namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kosimova G. Yapon va o'zbek tillarida qush timsoli. – Toshkent, 2016.
2. Ochilov O. VII-X asrlar tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi. – Toshkent, 2018.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
4. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot (9-sinf). – Toshkent, 2019.
5. Лотман Ю.М. Семносфера. – Санкт-Петербург: Искусство - СПб, 2001.
6. Тайлор Э.Б. Первобытная культура, серия "Библиотека атеистической литературы". – М., Издательство политической литературы, 1989.

ZAMONAVIY INGLIZ TILIDA NISBIY SUBSTANTIV SIFATLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI

STYLISTIC CHARACTERISTICS OF RELATIVE SUBSTANTIVE ADJECTIVES OF MODERN ENGLISH

Yunusov Norbek*

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikda, boshqa so'z turkumlari qatori sifat ham katta o'rinni egallaydi va o'zining leksik-grammatik, semantik va stilistik xususiyatlariga ko'ra mustaqil so'z turkumi sifatida ajratilgan. Ingliz tilida nisbiy sifatlardagi semantik tuzilmalarining tarmoqlanishi ushbu tildagi chuqur ildiz otganligini hamda atributiv nominativ konstruktsiyalar bilan raqobatiga qaramay, semantik jarayonlarga jalb qilishning mavjud tendentsiyalaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, nisbiy sifatlarning indikativ xususiyatini tasdiqlab, ularning semantik - derivativ jarayonlarda asl otlarning semantik tuzilmalaridan stilistik xususiyatlarni aktuallashtirish qobiliyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: so'z turkumlari, morfologik xususiyatlar, stilistik xususiyatlar, funktsional uslub, kasbiy lug'at, badiiy uslub.

Annotation. In modern linguistics, quality, along with other word groups, occupies a large place and is separated as an independent word group according to its lexical-grammatical, semantic and stylistic features. The branching of semantic structures of relative adjectives in English indicates that they are deeply rooted in this language and, despite their competition with attributive nominative constructions, present tendencies to engage in semantic processes. At the same time, it confirms the indicative nature of relative adjectives and shows their ability to actualize stylistic features from the semantic structures of original nouns in semantic-derivative processes.

Key words: part of speech, morphological features, stylistic features, functional style, professional vocabulary, artistic style.

* Tayanch doktorant. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti Universiteti. E-pochta: norbekyunusov75@gmail.com